


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERENARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

VETERINARIYA PROFILAKTIKASI VA DAVOLASH FAKULTETI

**“VETERINARIYA JARROHLIGI VA AKUSHERLIK”
kafedrasi**

AKUSHERLIK VA HAYVONLARNI SUN'YIY URUG`LANTIRISH fanidan



**“HAYVONLARDA BO‘G‘OZLIKNI ANIQLASHNING KLINIK
USULLARI. HAYVONLARDA BO‘G‘OZLIKNI UTT YORDAMIDA
ANIQLASH”**

mavzusidagi

OCHIQ DARS ISHLANMASI

SAMARQAND

Tuzuvchi:

Sidiqov Baxtiyor – “Veterinariya jarrohligi va akusherlik” kafedrasi assistenti

Taqrizchilar:

Eshburiyev S.B. - “Parranda, baliq, asalari va mo‘ynali hayvonlar” kasalliklari kafedrasi dotsenti, v.f.d.

Qo‘ldoshev O.O’. Veterinariya ilmiy tadqiqot instituti, laboratoriya mudiri, v.f.d.

**Hayvonlarda bo‘g‘ozlikni aniqlashning klinik usullari. Hayvonlarda
bo‘g‘ozlikni UTT yordamida aniqlash**
mavzusidagi amaliy mashg‘ulotining texnologik modeli

| | |
|--|---|
| <i>Mashg‘ulot vaqtisi – 2 soat</i> | Talabalarsoni- 24 nafar |
| <i>O‘quv mashg‘ulotining shakli</i> | Amaliy |
| <i>Amaliy mashg‘ulotining o‘quv elementlari</i> | <ol style="list-style-type: none"> 1. Hayvonlarda bo‘g‘ozlikni aniqlashning klinik usullari. 2. Hayvonlarda bo‘g‘ozlikni UTT yordamida aniqlash. |
| <i>O‘quv mashg‘ulot maqsadi.</i> Bo‘g‘ozlikni refleksologik, tashqi tomondan paypaslash va auskultasiya usullari, hayvonlarni tekshirishda ishlataladigan asboblar, maxsus kiyimlar, rektal va UTT tekshirish texnikasini o‘rgatish hamda bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish. | |
| <i>Pedagogik vazifalar:</i> <ol style="list-style-type: none"> 1. Turli xil bo‘g‘oz hayvonlardan bo‘g‘ozlikni klinik va maxsus tekshirish asboblari yordamida bo‘g‘ozlikni aniqlash usullarini tushuntirish. 2. Hayvoni tekshirishda zamonaviy tekshirish asbob-uskunalarini qo‘llash to‘g‘risida ma’lumot beradi. | <i>O‘quv faoliyati natijalari:</i> <ol style="list-style-type: none"> 1. Talabalar mavzuning asosiy tushunchalarini o‘zlashtiradilar. 2. Mavzuga doir aniq bilimlar doirasiga ega bo‘ladilar. 3. Egallangan bilimlardan foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘ladilar. 4. Mavzu yuzasidan umumiy xulosalarga keladilar. |
| <i>Ta’lim usullari</i> | Aqliy hujum, o‘qitishning to‘rt pog‘analı usuli, tushinchalar tahlili, izohli tasvir, namoyish, kichik guruhlarda ishslash. |
| <i>Ta’limni tashkillashtirish shakli</i> | Jamoaviy |
| <i>Ta’lim vositalari</i> | Kompyuter, videoproyektor, slaydlar, doska, tarqatma materiallar, fanendoskop va hayvon. |
| <i>Ta’lim berish sharoiti</i> | Maxsus texnik vositalar bilan jihozlangan auditoriya. |
| <i>Monitoring va baholash</i> | Og‘zaki so‘rov: tezkor – so‘rov, test. |

“Hayvonlarda bo‘g‘ozlikni aniqlashning klinik usullari. Hayvonlarda bo‘g‘ozlikni UTT yordamida aniqlash” mavzusidagi amaliy mashg‘ulotining texnologik xaritasi

| Ish bosqichlari va vaqtি | Faoliyat mazmuni | |
|---|---|---|
| | Ta’lim beruvchi | Ta’lim oluvchi |
| Tayyorlov bosqichi | Belgilangan ta’limiy maqsadlarga mos topshiriqlarini ishlab chiqadi | |
| 1 – bosqich. O‘quv mashg‘ulotiga kirish (10 daq.) | <p>1.1. Mashg‘ulot mavzusi, uning maqsadi va kutilayotgan natijalar bilan tanishtiradi, ularning ahamiyati va dolzarbligini asoslaydi.</p> <p>1.2. Mavzu bo‘yicha asosiy tushunchalarga ta’rif berishni taklif qiladi va talabalar bilimlarini faollashtiradi.</p> | <p>Tinglaydilar.</p> <p>Savollarga javob beradilar</p> |
| 2 – bosqich Asosiy bosqich (60 daq.) | <p>2.1. Talabalar e’tiborini jalb etish va bilim darajalarini aniqlash uchun tushinchalar nahlili metodi orqali savol javob o‘tkazadi.</p> <p>2.2. Bo‘g‘ozlikni tekshirishda bo‘g‘ozlikni aniqlash usuli haqida o‘qituvchi vizual materiallardan foydalangan holda amaliy bayon etishda davom etadi.</p> <p>2.3. S tartibi to‘g‘risida ma’lumot beradi.</p> | <p>Eshitadi, yozadi, navbat bilan bir-birini takrorlamay javobini aytadi. O‘ylaydi, javob beradi. Javob beradi va to‘g‘ri javobni eshitadi.</p> <p>Sxema va jadvallar, mazmunini muhokama qiladi, savollar berib, asosiy joylarini yozib oladi.</p> <p>Eslab qoladi, yozadi. Mustaqil bajaradi.</p> |
| 3 – bosqich Yakuniy bosqich (10 daq.) | <p>3.1. Talabalar olgan bilimlarini tahlil qiladilar.</p> <p>3.2. Mavzu yuzasidan savol – javob o‘tkaziladi.</p> | Eslab qoladi, yozadi. Mustaqil bajaradi. |



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Eshburiev B.M. Veterinariya akusherligi. Darslik. - Toshkent.: “Fan va texnologiya”, 2018 yil.
2. Eshburiev B.M., Eshburiev S.B., Djumanov S.M. Veterinariya akusherligi fanidan amaliy-laboratoriya mashg‘ulotlari. O‘quv qo‘llanma. - Samarqand.: “SamDU tahririylash-nashiriyot”, 2020 yil.
3. David E. Noakes Timothy J. Parkinson Gary C. W. England. Veterinary Reproduction and obstetrics. Coperight. 2019 by Elsevier, Ltd. All rights reserved.
4. Акушерство, гинекология и биотехника репродукции животных: Учебник / Под ред. Г. П. Дюльгера. - 9-е изд., перераб. и доп. СПб.: Издательство «Лань», 2019.
5. Студенцов А.П., Шипилов В.С., Никитин В.Я. и др.; Под ред. В.Я. Никитина и М.Г. Миролюбова. Ветеринарное акушерство, гинекология и биотехника размножения/ – 7-е изд., перераб. и доп. Учебник – М.: Колос, 2019 год.

Mavzu: Hayvonlarda bo‘g‘ozlikni aniqlashning klinik usullari. Hayvonlarda

O‘quv elementlari:

1. Hayvonlarda bo‘g‘ozlikni aniqlashning klinik usullari.
2. Hayvonlarda bo‘g‘ozlikni UTT yordamida aniqlash.

Mashg‘ulotning maqsadi:

Bo‘g‘ozlikni refleksologik, tashqi tomondan paypaslash va auskultasiya usullari, hayvonlarni tekshirishda ishlataladigan asboblar, maxsus kiyimlar, rektal va UTT tekshirish texnikasini o‘rgatish hamda bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.



Asosiy tayanch iboralar

Xalat,
Engcha,
Rezina etik
Ginekologik qo‘lqop
Qalpoqlar

Sochiqlar,
Yod nastoykasi,
Dezinfeksiyalovchi eritmalar,
Fonendoskoplar,
Qin oynasi
UTT

bo‘g‘ozlikni UTT yordamida aniqlash

Darsning maqsadi: Bo‘g‘ozlikni refleksologik, tashqi tomondan paypaslash va auskultasiya usullari, hayvonlarni tekshirishda ishlataladigan asboblar va maxsus kiyimlar hamda rektal tekshirish texnikasini o‘rgatish hamda bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish.

Ko‘rgazmali qurollar: Kompyuter, videoproektor, slaydlar, doska, tarqatma materiallar, fanendoskop, stetoskop, qin oynasi, UTT jixozi, eritmalar va hayvon.

«Tushinchalar tahlili» metodi

| <i>Tushinchalar</i> | <i>Mazmuni</i> |
|---|----------------|
| <i>Hayvonlarni bo‘g‘ozlik va bepushtlikni tekshirish bu</i> | |
| Bo‘g‘ozlik bu | |
| Bepushtlik bu | |
| | |

Darsning mazmuni: Turli qishloq xo‘jalik hayvonlarida bo‘g‘ozlikni aniqlash, tekshirish usullari, bo‘g‘oz hayvonlarni klinik tekshirish, bo‘g‘ozlik va bepushtlik haqida tushunchaga ega bo‘lish, bo‘g‘oz hayvonlarni parvarishlash, oziqlantirish ko‘nikmasiga ega bo‘lish.

Bo‘g‘ozlikni tashqi tomondan tekshirish. Hayvonning bo‘g‘ozligini aniqlash qorin shaklining o‘zgarishi va homilaning harakat qilishini payqash, shuningdek, uni tashqaridan paypaslab tekshirib ko‘rish, yurak urishini ona qorni devori orqali eshitish yo‘li bilan o‘tkaziladi. Hayvonning bo‘g‘ozligini tashqi tomondan ko‘rib to‘g‘ri aniqlash qiyin. SHunga qaramay, bunday klinik tekshirish usulidan voz kechish yaramaydi, chunki bo‘g‘ozlikning ikkinchi yarmida, ayniqsa uning oxirgi uchdan bir muddati qolganida, tashqi tomondan aniqlash muhim. Bunda ichki a’zolarga ta’sir etkazilmaydi.

Sigir va biyalarning bo‘g‘ozligini tekshirganda quyidagi qoidalarga rioya qilish kerak. 1) hayvonlarning so‘nggi tuqqan va urug‘lantirilgan vaqtini ko‘rsatilgan aniq yozuvlar (urug‘lantirish reestri, sun’iy urug‘lantirish jurnali va boshqalar) bo‘lishi va unga ko‘ra hayvonning bo‘g‘ozlik muddati aniqlanadi; 2) anamnez ma’lumotlariga ko‘ra, dastavval urg‘ochi hayvon tashqi tomondan ko‘zdan kechiriladi, agar hayvon bo‘g‘ozligi aniqlansa, u yozib qo‘yiladi; 3) hayvon bo‘g‘ozligi va uning necha haftaligi ichki tekshirish usullari bilan aniqlanadi. Oxirgi tabiiy yoki sun’iy urug‘lantirilgandan keyin navbatdagi jinsiy moyillik va kuyikish belgilari bo‘lmasa, u taxminiy bo‘g‘ozlik belgisidir. Biroq

bu hamma vaqt ham bo‘g‘ozlik belgisi bo‘la olmaydi.

Bo‘g‘ozlik davrining ikkinchi yarmida bachadondagi homila tez rivojlanadi, natijada hayvon qornining pastki o‘ng tomoni do‘ppayib turadi va qorinning shakli o‘zgaradi.

Bo‘g‘oz sigir o‘ng biqinining do‘ppayib shishib chiqishi qorin bo‘sning ining chap tomonida joylashgan katta qorinni bachadonning o‘ng tomonga ko‘ra siqishi natijasida ro‘y beradi.

Sigirning orqa tomonidan qorin devorlari hosil qilgan yoyga qaraganda chap tomonga turtib chiqib turgan nuqtasi taxminan uning o‘rtasiga to‘g‘ri keladi, o‘ng tomonida esa u joyning o‘rta qismidan pastroq joylashadi. Sigir sutining kamayishi va ta‘mining o‘zgarishi ham sigirning bo‘g‘ozligini bildiruvchi belgidir. Bunga ko‘ra faqat sigirning bo‘g‘oz bo‘lganligini taxmin qilish mumkin, lekin aniq diagnoz qo‘yib bo‘lmaydi.

Sigir bo‘g‘ozlik davrining ikkinchi yarmi boshlangandan so‘ng aniqrog‘i, uchinchi yarmida qorin devorini tashqi tomonidan paypaslab homilaning borligini aniqlash mumkin. Bunda sigir odatda ertalab oziqlantirilmaydi va sug‘orilmaydi. Agar bo‘g‘oz sigirgasov uq suv berilsa bachadondagi homila serharakat bo‘lib, qorinning o‘ng tomonidagi devorini qimirlatadi. Qorin devorining qisqa vaqt bo‘lsa ham kuchli qimirlashi ko‘zga yaqqol tashlanib turadi. Ammo bunday tekshirish homila uchun havfli.

Shuningdek, qorinning o‘ng tomonidagi devoriga kaftni qo‘yib, bolaning urilib harakat qilayotganligini sezish mumkin. Qorindagi bola o‘ng tomondan paypaslaganda bilinadi. Buning uchun qo‘l qorin devorining tizza bo‘g‘inidan qovurg‘alar ostiga ko‘ra yo‘nalgan chiziq ustiga qo‘yiladi.

Taranglashgan qorin devori sigir boshi va bo‘ynini biroz o‘ng tomonga burganda anchagina bo‘shashadi. Shundan so‘ng qo‘l qorin devori ichiga ko‘ra itariladi. Qorin devorini itarib turgan qo‘l tezlik bilan bo‘shashtirilganda harakatda bo‘lgan qattiq tanani sezishi mumkin. Ba’zan uning qo‘lga qattiq urilgani ham bilinadi. Sigirning bo‘g‘oz bo‘lganligiga ishonch hosil qilmoq uchun qo‘lni yuqoridan pastga va o‘ngdan chapga surib bir necha marta paypaslab tekshirib ko‘riladi.

Qo‘y va echkilarning bo‘g‘ozlik belgilari. Qo‘y va echkilarning takror kuyukmasligi (urug‘lantirilgandan keyin 3 hafta ichida), yuvosh bo‘lib qolishi va qornining asta-sekin kattalashib borishi, bo‘g‘ozlik belgilari hisoblanadi. Bo‘g‘ozlik davrining ikkinchi yarmida, ularning qorni har ikki tomonidan birday kattalashmasdan, o‘ng tomon devori do‘ppayib qolganligini aniqlash mumkin. Bunda bachadondagi homila harakatini kuzatish va qorin devori orqali uni paypaslab bilinadi. Qo‘y va echkinining chap yoniga turib, chap qo‘l bilan bo‘ynidan quchoqlab ushlab, o‘ng qo‘li bilan qorni paypaslanadi. Hayvonni ana

shunday holatda tutib tekshiruvchi kishining chap tizzasi erda bo‘lishi kerak. Bukilgan o‘ng oyoq bilan qorin chap tomonining pastki qismi asta-sekin, bir me’yorda itariladi. Bunda qorin ichidagi a’zolar o‘ng tomonga o‘tadi. Shu bilan bir vaqtida kuch ishlatmay qorinning o‘ng tomonidagi homilani osonlikcha paypaslab bilish mumkin.

Qo‘y va echkilar tekshirilayotganda, ularning buyragi zardob pardalarda osilib turishini, ya’ni buyrakning harakatchanligini va echki buyragini qorin devori orqali paypaslab bilish mumkin ekanligini esdan chiqarmaslik kerak. Qo‘y va echkilarning o‘ng tomonidagi buyragi jigarning o‘ng bo‘lagiga tegib turadi.

Uning ko‘ndalang uzunligi o‘rtacha 8-12 sm bo‘ladi. SHuning uchun qo‘y va echki bo‘g‘ozligini tekshirayotganda buyraklarning turish jyi va kattakichikligini bilib, dastlab tepa tomonidagi umurtqalar ortidan qattiq va nisbatan harakatchan buyraklar (ayniqsa echkilarda) topiladi. Keyin undan pastroq joyi paypaslanib ko‘riladi va har xil kattalik hamda shakldagi qattiq tana bachadondagi homila topiladi. Oriq va juni kalta qo‘ylarda ba’zan karunkulalarni paypaslab bilish mumkin.

Buning uchun tekshiruvchining yordamchisi hayvonni boshidan yoki bo‘ynidan mahkam ushlab turadi. Tekshiruvchi o‘zi uchun qulay tomonda turib, masalan, hayvonning orqa tomonidan turib bir qo‘li bilan hayvon qornini o‘ng tomonga siqib, boshqa qo‘li bilan o‘ng biqinini paypaslab homilani topadi.

Cho‘chqalarda bo‘g‘ozlikning tashqi belgilari. Cho‘chqalarning bo‘g‘ozlik davrida kuzatiladigan tashqi belgilari boshqa hayvonlarga o‘xhash bo‘ladi. Takror kuyukmasligi (urug‘lantirgandan keyin bir oy ichida), yuvosh bo‘lib qolishi, qornining asta-sekin kattalashib borishi hamda pastga ko‘ra osilib tushishi cho‘chqalarning bo‘g‘ozlik belgilaridir.

Bo‘g‘ozlikning ikkinchi yarmida oriq cho‘chqaning bachadonidagi homilasini ba’zan paypaslab aniqlash mumkin. Buning uchun bo‘g‘oz cho‘chqani biroz qashlab, yaxshisi chap tomoni bilan yotqiziladi. Bo‘g‘ozlikning uchinchi oyida oxirgi ikki elin so‘rg‘ichlari oralig‘i paypaslanganda homila bilinadi va qo‘lga qattiq tegadi.

Biya bo‘g‘ozligini tashqi usullarda tekshirish. Biyalar urug‘lantirilgach, bir oydan keyin qayta kuyikmasa, ya’ni sun’iy va tabiiy urug‘lantirilgandan keyin jinsiy moyillik davri bo‘lmasa, biya bo‘g‘oz deb hisoblanadi. Biyada ishtahaning yaxshilanishi, yaxshi semirishi, ishlatilganda tez charchashi va terga botishi, yuvosh bo‘lib qolishi, qornining chap tomonga do‘ppayib burtib chiqishi va boshqa shunga o‘xhash belgilar biyaning bo‘g‘ozligini aniqlashda faqat taxminiy ko‘rsatkichlar hisoblanadi.

Qorin bo‘shlig‘ining o‘ng tomonida yo‘g‘on ichak joylashganligi sababli

homila rivojlanayotgan bachadon chap tomonga suriladi. SHuning uchun bo‘g‘ozlik davrining ikkinchi yarmida biya qornining chap tomoni do‘ppayib shishib chiqqanligi bilinadi. Biyalar bo‘g‘ozligining ettinchi oyidan boshlab bachadondagi homilani tashqi tomondan paypaslash va uning harakatini aniqlash mumkin. Buning uchun yordamchi biya jilovidan kalta qilib ushlab turadi. Yordamchi bo‘lmasa tekshiruvchi kishi otning bosh tomoniga orqasi bilan turib, uning jilovini chap qo‘li bilan ushlaydi, o‘ng qo‘li bilan esa otning yag‘risidan ushlanadi. Otning boshi chap tomonga burilganda, uning qorin muskullari birmuncha bo‘shashadi. Bunda o‘ng qo‘l bilan taxminan tizza bo‘g‘inidan boshlab kintik tomonga ketadigan chiziq bo‘ylab bachadondagi homila paypaslab tekshiriladi. Qo‘l qorin devoriga biroz bosib turiladi, u birdan qo‘yib yuborilganda, qorindagi homilaning o‘z joyiga qaytishi tufayli harakat qilganligi seziladi.

Biyalar homilaning yurak urishini yuqorida eslatib o‘tilgan chiziqning chap tomonidan xuddi sigirlardagidek usullarda eshitiladi. Homilaning yurak urishi faqat shovqinsiz sharoitlarda eshitiladi. Homilaning yurak urishi bir daqiqada 120- 130 marta (biyalarda bir daqiqada 24-44 marta) bo‘ladi.

Pushtsizlik (besplodie, Steriakitas) - hayvonlarda ko‘payish a’zolari funksiyalarining vaqtinchalik yoki butunlay buzilishi bo‘lib, katta yoshdagi urg‘ochi hayvon tuqqandan so‘ng turli sabablarga ko‘ra, bir oy davomida, yosh hayvonlar fiziologik jihatdan etilgandan keyin bir oy davomida urug‘lanmasa ular bepusht deb hisoblanadi.

Qisirlik (yalovost) - esa iqtisodiy ko‘rsatkich bo‘lib, yil davomida hayvonlarning kutilgan miqdordagi bolani bermasligi tushiniladi.

Bepushtlikning belgilari hayvonning uzoq muddat davomida kuyga kelmasligi, bir necha marta urug‘lantirishdan keyin ham urug‘lanmaslik, jinsiy sikl muddatlarining buzilishini hisoblanadi.

Hayvonlarning qisirligi rejadagi bola olinmasligi, hayvonlar sut mahsulorligining kamayishi, parvarishlash va oziqlantirish uchun xarajatlarni qoplanmasligi, qisir hayvonlarni bir necha marta urug‘lantirish va ularni davolash uchun xarajatlar hisobiga xalq xo‘jaligiga katta iqtisodiy zarak etkazadi. Ko‘pincha zotdor qisir sigirlarni barvaqt podadan chiqarishga to‘g‘ri keladi.

Ko‘pchilik mutaxassislar pushtsizlik bilan qisirlikni bir narsa deb noto‘g‘ri hisoblashadi. Pushtsizlik biologik xususiyat, qisirlik esa iqtisodiy ko‘rsatkich bo‘lib, quyidagi to‘rt jihatlari bilan bir biridan farq qiladi:

1. Pushtsizlik - urg‘ochi va erkak hayvonlarning noqulay sharoitlarda saqlanishi tufayli nasl berish xususiyatlarining izdan chiqishi;

Qisirlik - urg‘ochi hayvonlarda o‘tgan yil davomida rejalahtirilgan bolani olinmasligi.

2. Pushtsiz hayvonlar deganda tuqqandan so‘ng bir oy davomida urug‘lanmagan ona hayvonlar, fiziologik jihatdan etilgandan keyin bir oy ichida urug‘lanmagan yosh hayvonlar tushiniladi;

Qisir hayvonlar deganda xo‘jalik yilida bola bermagan (tug‘magan) katta yoshdagi va fiziologik etilgan (bola berishi rejalashtirilgan) yosh hayvonlar tushiniladi.

3. Pushtsizlik - biologik xususiyat bo‘lib, har bir hayvonni tekshirish orqali xo‘jalik yilining har bir kunida hisobga olinishi mumkin;

Qisirlik - esa iqtisodiy ko‘rsatkich bo‘lib, uni faqat xo‘jalik yili tugagandan keyin hisob-kitoblar va inventarizasiya natijalariga ko‘ra anqlash mumkin.

4. Pushtsizlikni tugatish bilan har bir ona hayvondan bo‘g‘ozlik va bo‘g‘ozlikdan keyingi davr uchun kerakli muddatlarda bola olishga erishiladi;

Qisirlikni tugatish bilan har 100 bosh sigirdan 100 bosh buzoq olishga erishiladi.

Qin orqali tekshirish. Oldin qo‘l bilan jinsiy lablar ochilib, qin dahlizining shilliq pardasi va klitor ko‘zdan kechiriladi. Keyin paypaslab ko‘rish bilan qin teshigi, qin va bachadon bo‘yni tekshiriladi.

Ko‘zdan kechirish vaqtida tabiiy yoki sun’iy yorug‘likdan (reflektor, elektr fonarcha) foydalaniladi. Qin shilliq pardasi normal holatda och qizil yoki qizil rangda va o‘rtacha namlikda bo‘ladi. Shilliq pardada patologik o‘zgarishlar kuzatilganda, qizarish, shishgan joylar, katta-kichik qon quyilishlar, shilimshiqli, yiringli ekssudat va yorilishlar, tugunlar, pufakchalar, eroziyalar va hokazolar paydo bo‘ladi. Bundan tashqari, qin orqali tekshirishda o‘sma, chandiq, jarohat, yara va boshqalarni aniqlasa bo‘ladi. Paypaslab ko‘rliganda, qin shilliq pardasining g‘adir-budurligi seziladi.

Patologik jarayon ham differensial diagnostikada rol o‘ynaydi. Masalan, tugunlarning klitor yuzasida g‘uj-g‘uj bo‘lib joylashishi va nurga o‘xshab tarqalgan qatorlar shaklida qin dahlizining yonida joylashishi sigirlarda uchraydigan yuqumli vaginit (vestibulit) kasalligiga gumon tug‘diradi.


Tiqinga o‘xshab do‘ppayib turadigan bachadon bo‘ynini ko‘zdan kechirishda uning joylashishi, shakli, katta-kichikligi va bachadon bo‘yni kanali tashqi teshigining qanchalik ochiq turganligiga ahamiyat beriladi.

Hayvonlarda bachadon bo‘yni odatda o‘rtasida teshigi bo‘lgan silindrik do‘mboq shaklida qin bo‘shlig‘iga botib turadi (biyalarda 5 sm gacha, sigirlarda 2-3 sm gacha). Bachadon bo‘yni ko‘pincha biror tomonga, pastga yoki yuqoriga siljigan bo‘ladi, bu hamma vaqt ham patologik jarayon borligini ko‘rsatmaydi. Bachadon bo‘ynining kanali (qoramollarda) faqat tug‘ish vaqtida, bir oz vaqt tug‘ishdan keyin va kuyikish paytida ochiq turadi. Hayvon kuyikmagan paytda bachadon bo‘yni kanalining ochiq turishi patologiya hisoblanadi. Bachadon bo‘yni

kanalidan suyuqlik kelayotgan bo‘lsa uning sababi aniqlanadi.


Bo‘g‘ozlikni aniqlashda ultratovush jixozidan foydalanish. Veterinariya vrachlari tomonidan tug‘ilishga tayyorlanayotgan uy hayvonlari uchun tavsiya etiladi. Bo‘g‘ozlik davrida, birinchi oylardan boshlab, homila rivojlanish dinamikasini qayd etish kerak. Ultratovush tekshiruvi mutlaqo xavfsizdir, jarohat yetkazmaydi va homilaning qanchalik yaxshi rivojlanayotganini hamda normaga mos kelmaydigan fiziologik anormalliklarning mavjudligini, favqulot vaziyatlarda kesarev usulini qo‘lash kerakligini aniqlashga yordam beradi.

Hozirgi vaqtida sigirlar bilan ishslash uchun ultratovushli tekshirish apparatlarning bir nechta modellari mavjud, ular sensorning dizaynidan tubdan farq qiladi. Sensorning tuzilishi natijada olingan tasvirlar sifatiga sezilarli ta’sir qiladi va uning ishslash qoidalariga qo‘shimcha talablar qo‘yadi.



1-rasm. Sigir bachadoni. Bo‘g‘lik muddati 40 kun. 1 - embrionning tanasi; 2 – homila oldi suyuqlik

bachadon tomon bosiladi va sensori bachadon shoxlari ustidan pastga qarata harakat qildiriladi.



2-rasm. Sigir bachadoni. Bo‘g‘lik muddati 60 kun. 1 - homilaning tanasi. Umurtqa pog‘onasi, bosh suyagi va 1 oyoqlarini aniq ajrata olamiz; 2 - choyshablar

Ultratovushli tekshirish yordamida bo‘g‘ozlikni aniqlash urug‘lantirilgandan keyin 35 kundan - 45 kungacha dastlabki bosqichlarda amalga oshiriladi.

Tekshirish uchun hayvon maxsus tayyorgarlikni talab qilmaydi.

Dars davomida talabalar mavzu bo'yicha qo'yidagi topshiriqlarni bajarib, natijalarini daftarga yozib, tahlil qilib, vrachlik xulosasini yozadilar:

1- topshiriq. Bo'g'likni tekshirish qoyidalari. (To'rt talaba tomonidan bajariladi).

1. Sigir va biyalarni bo'g'ozlikni tekshirish qoyidalari;
2. Qo'y va echkilarning bo'g'likni tekshirish qoyidalari;
3. Cho'qalarni bo'g'ozlikni tekshirish qoidalari:

2- topshiriq:

1. Bo'g'ozlik belgilarini (hayvonlar turiga mos holatda) aniqlash.
2. Bepushtlikning belgilarini aniqlash.

3- topshiriq:

1. Barcha talabalar bo'g'oz hayvonlarni tekshirish natijalarini daftarga yozib, tahlil qilib, vrachlik xulosasini yozishi lozim.

Nazorat savollari:

1. Hayvonlarda qanday bo'g'ozlik belgilar kuzatiladi?
2. Bepushtlikni qanday belgilari bor?
3. Bo'g'ozlik va bepushtlikni o'ziga xos klinik belgilari?
4. Bo'g'ozlik va bepushtlikni aniqlashning zamonaviy usullari?